

MIRZACHORBOG' SAROIY REZIDENSIYASI TURIZM MANZILI

Shuhratov Jonibek Shuhratovich

Navoiy innovatsiyalar universiteti,

Tarix yo'nalishi bosqichi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18504157>

Annotatsiya: ushbu maqolada Navoiy viloyati Karmana tumanidagi 1900-1905 yillarda Buxoro amirligi tomonidan qurilgan “Mirzachorbog’” saroyi, saroyning o'ziga xos arxitekturasini hamda mazkur tarixiy obidaning hudud turizm salohiyatini oshirishdagi o'ziga xos jihatlari haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: Mirzachorbog', tarixiy meros, Navoiy, Karmana, turizm, arxitektura

O'zbekistonda sayyohlar uchun o'z arxitekturasini, bino ichidagi xalq amaliy san'atining ganchkorlik, yog'och uymakorligi, naqqoshlik kabi bezaklari asosida o'ta nozik did va san'at darajasida bezatilgan Buxoro amirligi davriga oid tarixiy obidalar Buxoro, Samarqandda joylashgan. Ayniqsa gap ushbu saroylarda xizmat qilgan mashhur ustalar haqida ketganda ko'pchilik usta Shirin Murodovni eslaydi. Karmana bekligi davrida amir Abdulahadxon davrida Karmana tumanida qurilgan “Mirzachorbog’” saroy rezidensiyasi ham shunday noyob tarixiy obida, ustalar ayniqsa usta Shirin Murodov tomonidan bezatilgan tarixiy yodgorlik hisoblanadi. Aynan Mirzachorbog' saroyi Navoiy viloyatidagi 400dan ortiq madaniy merosning Buxoro amirligi davri bilan bog'liq hali sayyohlar qadami yetmagan obektidir. Bu tarixiy qadamjoda sayyohlar va viloyat turizmi uchun ulkan imkoniyat [1].

Afsuski, sho'rolar davrida Karmana tarixi ham unutildi, atay tarixiy obida va qadamjolar omborxona va molxonalarga aylantirildi. Birgina Karmana tumanidagi Deggaroniy, Mirsaid Kulol, Mir said Bahrom qadamjolari, Qosimshayx Azizon va maqbaralar o'z holiga tashlab qo'yildi. Ham milliy o'zlikka qarshi kurash ham Buxoro amirligi tarixiga tuhmat oqibatida Buxoro amirlari hayoti va ular tomonidan bunyod etilgan tarixiy yodgorliklarga nisbatan nafrat va turli ig'volar atay sig'dirildi. Aytaylik Karmana tumanidagi Mirzachorbog' saroyi to mustaqillikkacha qarovsiz holga tashlab qo'yildi. Xalq orasida amirlar maishatxo'r bo'lganligi uchun o'ziga saroylar qurgan, bu saroylarning oddiy xalq uchun hech qanday nafi tegmagan, degan iddaolar bilan madaniy yodgorliklar atay buzildi. Hozirda Karmana tumanida Amir Abdulahadxon tomonidan qurilgan o'ta go'zal va hashamatli Charmgarchorbog' saroyidan umuman nom-nishon qolmagan. Yer ostidagi toshhammom tag-tagi bilan buzib tashlangan. Vaholanki bu yodgorliklar, devoriy naqshlardagi bezak va asl ranglar har bir xorijiy sayyox uchun qiziqarli sayohat va hudud uchun davomad va farovonlik gvrovi edi.

Birgina misol, ilmiy davralarda Buxoro amirligi davridagi eng go'zal saroylar va qabulxonalar haqida gapirganda Sitorai Mohi Xossa, Fayzulla Xo'jjayev uy muzeyi haqida so'z yuritiladi. Biroq, Karmana tumanida Mirzachorbog' saroy rezidensiyasi borki u qurilishi, bezatilishi, davriy ahamiyati bo'yicha boshqa obidalardan qolishmaydi. Jumladan, davriy ahamiyati, ijtimoiy mavqeini hisobga oladigan bo'lsak aynan “Mirzachorbog’” saroyi Karmana bekligida qurilgan ilk xalq qabulxonalari vazifasini bajargan. O'z-o'zidan ma'lumki, Amir Abdulahadxon umrining so'ngi yillarida Buxoro amirligini Karmana bekligidan turib boshqargan. Shu maqsadda Karmanada ko'plab bog'lar, chorbog'lar va saroylar qurdirgan. Jumladan Xoncharbog', Gulcharbog', Charmgarchorbog', Mirzachorbog' kabi tarixiy obidalarni

qurdirgan. Aynan “Mirzachorbogʻ” saroyi bu oʻz vazifasiga koʻra oʻsha davr uchun xalq va mehmonlarni qabul qiladigan rezidensiya yoki qabulxona vazifasini oʻtagan.

Karmanalik olim J.Savriyevning aytishicha Mirzachorbogʻ saroyi saroylar ichida eng goʻzali va murakkab xalq amaliy sanʼati durdonalari bilan bezatilgan saroy boʻlgan. Saroy 1900-1905 yillarda Amir Abdulahadxonning topshirigʻiga koʻra mashhur arxitektor Xoʻja Abdurahim tomonidan loyihalashtirilgan. Qurilishga mashhur ustalardan usta Shirin Murodov boshchiligida karmanalik ustalar Sulton qori, Usta Doʻsti va usta Latiflar qatnashgan. Saroy asosan yogʻoch va gʻishtdan choʻpkori usulda tiklangan.

Soʻnggi yillarda turizm va tarixiy yodgorlik va madaniy merosga boʻlgan davlat eʼtibori natijasida mirzachorbogʻ saroyi rezidensiyasiga eʼtibor kuchaydi. Madaniy meros agentligi va navoiylik jamoat faollari ishtirokida ushbu saroyi xorijiy sayyohlar uchun turizm manziliga aylantirish ishlari boshlab yuborildi. Avvalo, madaniy yodgorlikning muhofaza devorlari qad rostladi. Tarixiy binoning tom qismi, deraxa va eshiklari qayta taʼmirlandi. Saroy ichidagi har bir sanʼat turi naqqoshlik uchun alohida, ganchkorlik va yogʻoch uymakorligi uchun alohida ustalar jalb etildi. Hozirda saroyning shift va shohnishin qismi tayta taʼmirlanmoqda.

Jamoatchilik hamda Navoiy viloyat “Mehmon” turizm markazi homiyligida ushbu saroyi sayyohlar uchun turizm murshrutiga aylantirish maqsadida xalqaro M-37 avtomagistral yoʻl yoqasida madaniy meros belgisi va yoʻl koʻrsatkichlari oʻrnatildi. Ijtimoiy tarmoqlarda saroy haqida qiziqarli tarixiy maʼlumotlar va ilmiy xulosalar berib borildi.

Xulosa oʻrnida, Mirzachorbogʻ saroyi oʻz tarixiy ahamiyatiga koʻra Markaziy Osiyo arxeologiyasida oʻziga xos bezak “Kundal” usuli (naqshlar qizil loy. Ganchlar bilan qabariq shaklga olib kelinadi) qoʻllanilgan noyob tarixiy bino. Bu kabi binolar esa oʻzbekona milliy xalq amaliy sanʼatiga qiziqadigan olimlar, tadqiqotchilar va halqaro sayyohlar uchun ochiq osmon ostidagi muzeyga teng.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qoʻmitasi. Oʻzbekistonda madaniy va tarixiy turizmni rivojlantirish konsepsiyasi. — Toshkent, 2021.
2. Xolmatov B., Abdullayeva N. Oʻzbekistonda tarixiy-meʼmoriy obidalar va ularning turizm salohiyati. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Jahon Turizm Tashkiloti. Cultural Heritage and Sustainable Tourism Development. — Madrid, 2018.